

**OMON MUXTORNING “MING BIR QIYOFA” ROMANIDA BOSH
QAHRAMON MUAMMOSI**

Tajibaeva Difuza Erkinovna,

Namangan davlat universiteti

Filologiya fanlari bo'yicha

falsafa doktori, dotsent

***Annotasiya.** Maqolada iqtidorli o'zbek yozuvchisi Omon Muxtorning “Ming bir qiyofa” romani tadqiq etilgan. Unda asardagi bosh qahramon muammosi xususida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** roman, qahramon, kompozitsiya, syujet, obraz, personaj, usul, yozuvchi, fikr, muammo*

**THE PROBLEM OF THE MAIN CHARACTER IN AMON
MUKHTAR'S NOVEL " THOUSAND AND ONE FACES"**

Tajibaeva Difuza Erkinovna,

Namangan State University

Doctor of philosophy in philology,

associate professor

***Abstract.** The article examines the novel “ Thousand and one Faces” by the talented Uzbek writer Omon Mukhtar. It discusses the problem of the main character in the work.*

***Keywords:** novel, hero, composition, plot, image, character, method, writer, idea, problem*

**ПРОБЛЕМА ГЛАВНОГО ГЕРОЯ В РОМАНЕ АМОНА МУХТАРА
«ТЫСЯЧА И ОДНО ЛИЦО»**

Тажибаева Дилфуза Эркиновна,

Наманганский государственный университет

доктор философии по филологическим наукам, доцент

Аннотация. В статье рассматривается роман талантливого узбекского писателя Омона Мухтара «Тысяча и одно лицо». Рассматривается проблема главного героя произведения.

Ключевые слова: роман, герой, композиция, сюжет, образ, характер, метод, писатель, идея, проблема

Kirish

Milliy mustaqillik tufayli hamma sohalaridagi kabi adabiyotshunoslikda ham yangi imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratildi. O'zbek adabiyotshunosligida tur va janrlar kesimida an'anaviy nazariy qarashlar bilan birga yangicha uslub, janrlardagi yangi shakl ko'rinishlari paydo bo'la boshladi. Badiiy asardagi qahramonlar xarakter xususiyati jihatidan faqat salbiy va ijobiy turlarga ajratilmasdan balki qahramonga uning butun murakkabliklari, ichki dunyosi nuqtayi nazaridan yondashish va badiiy-falsafiy talqin qilish ehtiyoji kuchaydi.

Mustaqillikdan keyingi yillarda yaratilgan romanlardagi bosh qahramon tasvirida an'anaviylikdan qochish, personajlarning xatti-harakatidan ko'ra ichki olami, ruhiy dunyosini tasvirlash yuqori ekanligini kuzatish mumkin. Demak, roman syujeti, kompozitsiyasi, bayon qilish usullari, bosh qahramonning tanlanishi, qahramon ruhiy dunyosini tasviri jihatidan mutlaqo yangilandi va yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi.

Adabiyotlar tahlili:

“Har bir insonning boshqalarga bildirmaydigan istaklari bor va buni hatto ularning o'zlari ham tan olmaydilar.” [6] - degan edi Zigmund Freyd. Omon Muxtorning “Ming bir qiyofa” romani qahramonining ham qalbida uzoq yillar saqlanib kelgan yashirin, boshqalarga bildirmay yurgan og'riqli his-tuyg'ulari bor edi. Abdulla Hakim buni qalban his qilib yursa ham tan olavermas edi.

“Musiqqa turli-tuman tovushlar yordamida insonning eng murakkab, eng nozik his-tuyg'ulari va kayfiyatini shu kadar chuqur ochib beradiki, so'z san'atining bunga shu qadar qodir bo'la olishi amrimaholdir. Ammo adabiyotning o'ziga xosligi shundaki, u shaxsni, voqeani, predmetni yaqqol va yorqin ifodalaydi, tashqi dunyoning rang-barang hodisalarini ham, inson qalbi dialektikasini ham o'z ichiga

qamrab oladi.“[2,32.] Darhaqiqat, romanning bosh qahramoni ruhiyati zamon va makon bilan bog‘liq holda, real va noreal dunyo orasida sodir bo‘layotgan voqealar uyg‘unligida aks ettiriladi.

Yozuvchi uslubi va mahorati haqida gap ketganda O.Burgardtning: “Haqiqiy uslub doim ichki, – lekin shu yerda biz farqlashimiz lozim: 1) idrok etish uslubi; 2) ifoda qilish uslubi. Idrok etish uslubi mazkur materialni muallifning qanday topib olishi, qayta ishlashi va boyitishida, ifoda qilish uslubi muallifning o‘z ichki dunyosini obrazlar va shakllar libosiga qanday o‘ray olishida namoyon bo‘ladi”. [3,9.] Olim nazarda tutgan idrok etish uslubi ham, ifoda etish uslubi ham aslida ijodkorning ichki his-tuyg‘ulari bilan bog‘liq tushunchalar bo‘lib, ijodkor hayot haqiqatini idrok etganda ham, uni badiiy shakl va timsollar orqali ifodalaganda ham doimo o‘z qalbiga quloq tutadi va uning buyurganini yozadi.

Omon Muxtorning “Ming bir qiyofa” romani bosh qahramoni ifodasida Abdulla Hakim ichkilikka ruju qo‘ygan, insoniylik qiyofasini unutayozgan, jamiyatda o‘z o‘rnini topa olmagan obraz sifatida gavdalansa ham, yozuvchi idrokida shoir yigit bo‘lib, uning she‘rlari yetisha olmagan sevgilisi Halimaga atab yozilgan samimiy dil izhorlari bo‘lib, she‘rlar har qanday muzyurak kitobxon qalbini ham eritib yubora olar edi.

Tadqiqot metodologiyasi:

Mazkur maqolada mavzuni yoritishda tarixiy-qiyosiy va tipologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar:

Omon Muxtorning “Ming bir qiyofa” romanida Yaratganning izni, insonning bu dunyo va narigi dunyodagi hayoti aks ettirilgan.

Asarning bosh qahramoni Abdulla Hakim ismli bir yigit Burxon Sharif ismli shaxs o‘rnida uning uchun tahqirlanayotgan, achchiq qismat egasiga aylangan kimsaga aylandi. Bir idorada birga ishlaydigan Abdulla Hakim va Burxon Sharif tabiatan qiyofadosh edilar. Abdulla Hakim asarda bir o‘zi ijarada yashaydigan, ichkilikka ruju qo‘ygan va juda tushkun kayfiyatdagi inson sifatida tasvirlangan. U o‘ziga yordam berib turgan Burxon Sharif uchun o‘ldirildi. O‘limidan so‘ng esa

uning ruhi bezovta bo'lib uchib yurdi. O'lgan Burxon Sharif emas, Abdulla Hakim ekanligini uning o'zidan boshqa hech kim sezmedi. Ishxonasidan kelgan ikki hamkasbi ham, mirshablar ham, Burxon Sharifning farzandlari va xotini ham uni boshqa inson ekanligini anglab yetmadilar. Asarda Abdulla Hakim jasadini tekshirib ko'rib tergovchi uni Burxon Sharif deb xulosa chiqarganida u chidab turolmadi. Romanda qahramon tilidan aytilgan shunday so'zlar mavjud: "So'nggi kunlarda, men Burxon Sharifman, deb turib olgan Abdulla, hozir beixtiyor bo'g'ilib, sizlar tirik insonsizlar, o'z ishlaringa jiddiyoq qaranglar, birodarlar, axir men boshqaman, deb bor ovozda hayqirgisi keldi. Ammo jism bilan ruh bir-biridan uzilganida, jism ham, ruh ham gapirolmas ekan." [5,7.] Asarda bugungi kunda insonlar o'rtasida oddiy holatga aylanib borayotgan e'tiborsizlik, loqaydlik kabi illatlar aks ettirilgan.

Romanda o'limdan keyingi hayot tasviri, bu dunyo yolg'onlarining oqibati inson ruhining sarson bo'lishiga olib kelishi kabi voqealar tasviri har qanday kitobxonni e'tiborsiz qoldirmaydi.

Roman syujetida Abdulla Hakimning mast holatda va avtobusda notanish tomonda ketayotganidayoq she'r o'qib ketadi va uning ko'nglida qalbini zabt etgan inson borligi ma'lum bo'ladi. Keyinchalik uni turli xil qiynoqlarga solishganida, kaltaklanganida xayolida sevgan qizining paydo bo'lishi va xonaga kirib kelishi tasvirlanadi. Bu qiz uning kursdoshi Halima edi. Biroq taqdir ikki sevrishgan qalbni birlashtirmagan, onasining qarshiligi bilan Abdulla Hakim Halimaga uylana olmagan edi. Abdulla Hakimning barcha she'rlari esa Halimaga bag'ishlab yozilgan edi. Asarda bu oshiq yigitning o'limidan keyin uning she'r daftari Sadijon ismli qahramonga sevgilisi Gulxumor orqali yetib kelishi, bu she'rlar go'yoki o'zi va sevgilisi Gulxumorga atab yozilgandek ekanligi, Sadijon va Burxon Sharifning qarindoshligi va oxir-oqibat bu daftar Burxon Sharif qo'liga tushib qolishi voqealar bayon etiladi. Romanda voqealar rivoji davomida Sadridinning Abdulla Hakimga va Burxon Sharif taqdiriga borib ulanishi ham zanjir tarzida ifodadanadi.

Romanda inson o'limidan keyingi hayot, qabr azobi, qiyomat kunining kelishi, Mahshargoh, do'zax va jannat kabi voqealarga ham keng o'rin beriladi. Abdulla Hakim o'limidan keyin qabr azobida qiynaladi, qiyomat kunini kutib oladi, do'zaxga tushadi. U yerda bu dunyoda qilgan gunohlari uchun javob beradi, azob o'tida yonadi. Uni ma'lum bir muddatdan so'ng do'zaxdan farishtalar olib chiqib ketadi. Uning birgina savobli ishi bor edi. Abdulla o'z muhabbatidan voz kechadi, biroq onasining aytgan so'zini qaytarmaydi. Ana shu onaning so'zini ikki qilmaganligi, uning mayliga qarshi bormaganligi uchun ham yigitning gunohlari kechiriladi.

Roman qahramonlari taqdiri murakkab tasvir obyekti aspektida zanjirli tizimda yoritilgan. Ya'ni:

Abdulla Hakim – Halima – Burxon Sharif

1. Abdulla Hakim sevgilisi Halimaga erisha olmadi. U o'zining qiyofadoshi Burxon Sharif uchun fojiali o'lim topdi. Uning sevgan insoni Halima esa Burxon Sharifning turmush o'rtog'i bo'lib chiqdi. (buni u faqat o'zining o'limidan keyin bildi).

2. Halima – Abdulla Hakimning sevgan qizi, kursdoshi va Burxon Sharifning rafiqasi. U Abdulla Hakimning onasi tomonidan rad etilgandan keyin taqdirini Burxon Sharif bilan bog'ladi.

3. Burxon Sharif ziyoli va jamiyatda o'z o'rniga ega shaxs edi. U insonlarga qo'ldan kelganicha yordam berar, millat taqdiri uchun ichki kurash olib borishdan to'xtamas edi. U hamkasbi Abdulla Hakim o'limiga juda achindi va qalban iztirob chekdi. Biroq qarindoshi Sadriddinnikiga borganida olib kelingan she'rlar o'zining turmush o'rtog'i Halimaga bag'ishlab yozilganligini bilib qolgach, rashk azobi qiynadi. Abdulla Hakim she'rlarini kitob qildirish fikridan qaytdi.

Roman syujetida yana bir ikkinchi uchlik paydo bo'ladi va bu qahramonlar taqdiri ham bosh qahramon qismatiga borib bog'lanadi:

Sadriddin – Gulxumor – Burxon Sharif

1. Sadriddin – Burxon Sharifning qarindoshi. U Gulxumor ismli qizni uchratib, unga ko'ngil qo'ydi. U Gulxumordan Abdulla Hakimning she'rlar

daftarini olib o'qidi. Bir kuni esa bu she'rlar daftari Sadridin orqali Burxon Sharif qo'liga tushib qoldi.

2. Gulxumor – Sadridinning ko'ngil qo'ygan qizi. Qiz ham yigitni chin dildan sevdi. Qiz ishlayotgan joy “Tarix va madaniyat” tashkiloti edi. Biroq Gulxumor bu dunyodan, jamiyatdan uzilib qolgan, jamiyatga zarar keltiruvchi mana shu tashkilot a'zolari bilan qolishni afzal ko'rdi.

3. Yana Burxon Sharif qismatiga bog'liq tomonlar mavjud. Gulxumor Abdulla Hakim she'r daftarini olib kelib Sadridinga berdi. Sadridin esa Burxon Sharifga, Burxon Sharif esa Halimaga yetkazdi. Halima esa bu she'rlar o'ziga atalganligini bilib qoldi. Burxon Sharif ham Halimani Abdulla Hakimning ilk muhabbati ekanligini tushunib yetdi.

Bu qahramonlar taqdiri bilan bog'liq uzviylik, zanjirli tizim roman syujetidagi voqealar rivojini dinamik tarzda o'sib borishiga olib keladi. Jamiyatda o'z o'rnini topa olmagan bosh qahramon Abdulla Hakim sevgi-muhabbat bobida xokisor oshiq bo'ldi. U Halimani chin dildan sevdi. U qishloqdan shaharga yana qaytganida ham aslida o'sha muhabbat ilinjida qaytdi. Abdulla Hakim hamkasbi Burxon Sharifdek bu dunyoda mehribon, saxiy, beozor kishi yo'q, deb tushunadi. Shuning uchun ham uni qattiq hurmat qiladi. Uning uchun jonini berishga ham tayyor edi.

Asar syujeti voqealari davomida har bir insonga Alloh tomonidan berilgan umr va hayotning qadriga yetmaslik, insoniylik tushunchalarini unutish, Yaratgannning iznidan chiqish, xatolarga berilgan jazoning taqdir hukmi deb atalmish qismat orqali ifodalanishini kuzatamiz.

Xulosalar:

Omon Muxtorning “Ming bir qiyofa” romanidagi bosh qahramon masalasi jamiyatda sodir bo'layotgan voqea-hodisalar bilan chambarchas bog'liq holda tasvirlangan. Bugungi kunda oddiy hodisaga aylanib borayotgan insonlardagi loqaydlik, e'tiborsizlik kabi illatlar asar qahramonlari faoliyati orqali aks ettirilgan. Yozuvchining mahorati shundaki roman syujetidagi voqea-hodisalarni zamon va makon uyg'unligida, real va noreal dunyo oralig'ida tasvirlangan.

Adabiyotlar:

1. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. – Toshkent: Fan, 1978. – T.1. – 416 b; 1979. – T.2. – 445 b.
2. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. . – B. 32.
3. Бургардт О. Новые горизонты в области исследования поэтического стиля. - Киев: Изд-во Самоненко, 1915. – С.9.
4. Boltaboev H. Nasr va uslub. – Toshkent: Fan, 1992. – 126 b.
5. Omon Muxtor. Ming bir qiyofa. Roman. Sharq, T.: 1994. B.7.
6. Manba: <https://ru.citaty.net/avtory/zigmund-freid/>